INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Tayanch ta’lim bosqichida o‘quvchilarning yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar

Kazimbetova Ziyuar Maxsetbaevna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti
email. kazimbetovaziywar@gmail.com tel: 93-920-65-31

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi avlod darsliklarida o‘quvchilarning tayanch bilim olishi jarayonida yozma kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari, shuningdek, yozish ko‘nikmasining o‘z fikrini ifodalashdagi ahamiyati bo‘yicha olimlarning ilmiy fikrlari va tadqiqotlari, o‘quvchilarda ma’lumotli matnlarni yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga mo‘ljallangan topshiriq va mashqlarning kreativligi hozirgi summativ baholash bo‘yicha BSB namunalari misolida tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: tayanch bilim berish, so‘zning lug‘aviy ma’nosi, uslubiy va imloviy qo‘llash, summativ baholash, bo‘lim summativ bahosi, kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv, argumentli esse.

Аннотация. В данной статье разъясняются пути формирования и развития письменной компетенции в процессе получения учащимися базовых знаний в учебниках нового поколения, а также научные взгляды и исследования ученых о значении навыков письма в выражении своего мнения, креативность заданий и упражнений, предназначенных для развития навыков написания информативных текстов у учащихся, на примере примеров современной суммативной оценки СУБ.

Ключевые слова: базовые знания, лексическое значение слова, методическое и орфографическое применение, суммативная оценка, суммативная оценка раздела, креативное мышление, творческий подход, аргументированное эссе.

Abstract. This article explains the ways of forming and developing writing competence in the process of students acquiring basic knowledge in new generation textbooks, as well as the scientific views and research of scholars on the importance of writing skills in expressing one's opinion, the creativity of tasks and exercises designed to develop students' skills in writing informative texts, using examples of modern summative assessment of SBS.

Keywords: basic knowledge, lexical meaning of a word, methodological and orthographic application, summative assessment, summative assessment of a section, creative thinking, creative approach, substantiated essay.

KIRISH

Avvalgi yillardagi tayanch ta’lim (8,9-sinflar) sinflari darsliklarida aksariyat mashq va topshiriqlar mazmuni bir xil bo‘lib, asosan o‘quvchilarning grammatik bilimlarini rivojlantirish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan edi. Amaliyotda sodda gaplarning tasnifi, turlarga bo‘linishi va tavsiflar asosida tahlil qilish [1], qo‘shma gap va uning turlari bo‘yicha berilgan bir xil mazmundagi mashqlar o‘quvchilarni biroz zeriktirgan edi. Shuningdek, tayyor qo‘shma gaplarni ko‘chirib yozish, sodda va qo‘shma gaplarni sintaktik tahlil qilish, sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantirish, bog‘lovchi vositalarni aniqlash, tinish belgilarini qo‘yish kabi topshiriqlar berilgan edi [2].

Bu kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning yozma kompetensiyasini to‘liq rivojlantiradi deyish qiyin. Bizningcha, o‘quvchilarga tayyor gaplarni berish emas, balki ularni qiziqtirish uchun turli usullardan foydalanish samaraliroq bo‘ladi. O‘quvchi ko‘proq qo‘shma gapning tuzilishini emas, balki o‘z nutqidagi qo‘shma gaplarning ahamiyatini, ularni o‘rinli foydalanishni bilishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Matn tuzish va uni adabiy til mezonlariga rioya qilgan holda yozish, fikrlardagi izchillik, mantiqiylik, matnning mazmuni, uslubiga mos so‘zlarni tanlash, matn mavzusiga oid leksik boyliklardan o‘rinli foydalanib, mazmunli matn tuzish o‘quvchilardan bilim va yoshiga mos so‘z boyligini talab qiladi. Shuning uchun ham R.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrini eslatish o‘rinli deb o‘ylayman: «Nutqiy faoliyat orqaligina matnni harakatga keltirish mumkin. Kuzatishlardan ma’lumki, butun matnni yod olgan ko‘pchilik o‘quvchilar o‘z ona tilida biror jumlani o‘zgartirib aytib berish talab qilinganda, buni bajara olmaydi...[3:112-b.] ». Shunday o‘quvchilarimiz bor: darslikdagi matnlarni tushunmay turib yoddan aytib beradi, lekin shu matnning mazmuni, g‘oyasi, muallif maqsadi so‘ralganda, to‘liq javob bera olmaydi. Ularda nutqiy ko‘nikma talab darajasida rivojlanmagan va matnni qayta aytib berishda tilshunoslikning nutqiy qoidalarini amalda qo‘llash va foydalanish ko‘nikmasi yetarli darajada emasligi sezilib turadi. Shuni hisobga olib, o‘quvchilar matn mavzusi va mazmuniga mos bo‘lgan so‘zlardan foydalanishlari zarur. Filolog olim Q.Omonovning fikricha, «Muallif tomonidan so‘zning to‘g‘ri tanlanishi nafaqat uslubiy bilimga ega ekanligini bildiradi, balki matnning ma’lumot tashish qiymatini ham oshiradi va uning mazmuniy ta’sirchanligini kuchaytiradi. So‘zni noo‘rin tanlash esa fikrni anglashda qiyinchilik tug‘dirish bilan birga, mantiqiy xatolarni keltirib chiqaradi [4:72-b.]». Agar o‘quvchilar matnga kerakli so‘zni tanlab, so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilib, fikrni izchil bayon qilsa, matndagi ma’lumot tinglovchiga oson yetib boradi. Demak, matnda so‘zning o‘rni - eng muhim masalalardan biri. Ayniqsa, bu holatni o‘quvchilarning yozma nutqida ko‘rishimiz mumkin. Rus filologi R.I.Galperinning aytishicha, «Qog‘ozga yozilib, hali o‘qilmagan matn - harakatsiz matn [5:6-b.]». «O‘quvchilarning ona tilidan olgan bilim darajalari, - deb yozadi T.Yusupova, - tilning grammatik tuzilishini qay darajada o‘zlashtirganliklari bilan emas, balki ularning o‘z fikrlarini adabiy tilning boy tasviriy vositalaridan o‘rinli, to‘g‘ri foydalanib, og‘zaki va yozma shakllarda ifodalay olishlari, shaxsiy mulohazalarini mustaqil ifodalay olishlari bilan belgilanishi lozim [6:3-b.]». Shu joyda ta’kidlash joizki, nutqning yozma ifodalanishini o‘quvchi darslikdan maxsus nazariy qoidalar asosida o‘rganadi. Yozma matn o‘quvchining o‘qib tushungan matni asosida shakllanadi. Masalan, biror topshiriqni yozishni topshirishdan oldin, albatta, birinchi navbatda, o‘sha topshiriqning bajarilish shartini o‘qib, tushunib olish talab etiladi. Matn mavzusining qamrovi, tanlangan so‘zlarning mazmuniy ma’nosi, matn g‘oyasidan kelib chiqib ko‘zlangan asosiy maqsad koloriti orqali sermazmunligi ortadi. O‘quvchilar matnni diqqat bilan o‘qimasa, undagi mazmun, g‘oya noaniqligi bilan qolaveradi. O‘quvchilarda yozma ifodalashning rivojlanishi bilan erkin fikrlash va aql sifati ham ortib boradi. 8,9-sinf o‘quvchilari biror matnni yaratishda ko‘proq gaplarni uslubiy jihatdan ketma-ketlikda berishda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadilar. «Gaplar ketma-ketligining bog‘lanishi asosida og‘zaki va yozma shaklda tarkib topgan tarkibiy, mazmuniy va kommunikativ yaxlitlik bo‘lgan matn - tilning eng yirik birligidir [7:28-b.] ». Istalgan gaplar mazmunan birlashtirilsa, matn hosil bo‘lavermaydi. Biror mavzuga oid so‘zlar tanlab olinib, mazmun va tuzilish jihatidan izchillikda berilib, xatboshilarning o‘zaro mazmuniy bog‘liqligini, uslubiy jihatdan o‘rinli, uyg‘un qo‘llanilib, tinish belgilari qo‘yilib, adabiy til me’yorlariga mos tarzda berilsa, shundagina haqiqiy matn shakllanadi. Bog‘lanishli matn tuzishda asosiy vazifalardan biri - og‘zaki topshiriqlarni bajarib olish, so‘ng o‘zi tuzgan gaplarni o‘zlariga tahlil qildirish. O‘qilgan matnni tushunish uchun eng avvalo o‘quvchi shunga qarab yo‘naltirilgani ma’qul. Bugungi kunda kichik 6,7-sinflardan boshlab esse yozish ko‘nikmasi shakllantirib borilmoqda. Albatta, o‘quvchi esse haqida tushunchaga ega bo‘lmasa, uni yozish ko‘nikmasiga ega bo‘lmaydi. Shunday ekan, ularga to‘g‘ri yo‘nalishni yozma savodxonligi bilan fikrlashini teng tekshirishni maqsad qiluvchi esse ishlarini qanday yozishni o‘rgatishdan boshlash maqsadga muvofiq. Bu yo‘l-yo‘riq berish jarayoni bo‘lib, ushbu sinflardagi yo‘naltiruvchi bo‘lim summativ baholash (BSB) ishlarini misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ixtisoslashtirilgan maktablarning 7-sinfi uchun «Qoraqalpoq tili» fanidan 1-chorak I BSB topshirig‘i quyidagicha berilgan:

Topshiriq: O‘qib tushunish va yozish. Esse

Esse yozish uchun 1 akademik soat (45 daqiqa) ajratilib, ish 100-150 so‘z atrofida bo‘lishi kerak. E’tibor bering, quyidagi hollarda esse ishi 2 ball bilan baholanadi:

esse ishi 100 so‘zdan kam bo‘lsa
boshqa birovdan ko‘chirilsa
berilgan mavzuga mos kelmasa
Esse ishi jami 25 ball bilan baholanadi.

Esse uchun berilgan matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi va shu matndan kelib chiqqan mavzu bo‘yicha o‘quvchi o‘z qarashlarini asoslaydi.

O‘qituvchining foydalanishi uchun mobil telefon haqida kichik 150-200 so‘z atrofida matn berilgan. Matnni o‘quvchilarga aniq va tushunarli qilib o‘qib beradi, so‘ng shu asosda esse ishini yozishni topshiradi. Esse ishining shaklini bilmagan o‘quvchi uchun quyidagicha yozma ish varaqalari tarqatiladi:

O‘quvchining ismi, familiyasi: _____
Sinfi: _____ To‘plagan bali: _____
Fan o‘qituvchisi: _____
Sana: _____

Telefon va uning hozirgi ahamiyati qanday?

_____
_____

Telefonning qanday foydali tomonlari bor? Fikringizni 2 ta hayotiy fakt bilan asoslang.

_____
_____

Telefonning qanday zararli tomonlari bor? Fikringizni 2 ta hayotiy fakt bilan asoslang.

_____
_____

Telefonni to‘g‘ri va o‘rinli ishlatish bo‘yicha qanday takliflaringiz bor? Xulosa qiling.

_____
_____

Namunadan ko‘rinib turganidek, o‘quvchi berilgan savollarga faqat javob yozib boraveradi, natijada oddiy ko‘rinishdagi argumentli esse shakllanadi. Bu esseni yozib bo‘lgach, o‘qituvchi keyingi darsda argumentli esse qanday yozilishini tushuntirsa, o‘quvchi o‘zi yozgan ishi orqali uni aniq va tez tushunib oladi.

Esse publitsistik uslubda yozilishi kerakligini, unda fikrlar hayotiy faktlar bilan ikki tomonlama dalillanishini kichkina 7-sinf o‘quvchisi shunday o‘rganib borib, 8,9-sinflarga kelganda namunasiz yozishga o‘rganadi. Endi ularning yosh xususiyatiga qarab so‘zlar soni ham 200-250 tagacha belgilanadi.

Yana bir katta muammo - o‘quvchilarning rasmiy ish uslubidagi matnlarni yozishda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishidir. Rasmiy ish uslubi o‘z shtamp so‘zlari va ifodalanish andozasiga ega bo‘lganligi sababli, o‘quvchida ong va sifat ko‘rsatkichi bo‘lishini talab qiladi. Bu talabni ham o‘quvchida kichik sinflaridan boshlab oddiy o‘zi haqida kichik hujjatlar (tarjimayi hol, tavsifnoma) yozishni o‘rgatishdan boshlagan ma’qul. Shuning uchun ham hozirgi maktab darsliklariga hujjatlarning oddiydan murakkabga qarab turlari ketma-ket kiritilib borilgan. Masalan, o‘quvchining o‘z tarjimayi holini badiiy bayon etishi va rasmiy talqinini takomillashtirishga mo‘ljallangan badiiy va rasmiy tarjimayi holning berilishi tartibiga oid mavzular 7-sinf Qoraqalpoq tili darsligida berilgan bo‘lsa [8:176-180], turli majlislar, ma’ruzalardan so‘ng tuziladigan bayonnomalar, hisobotlar keyingi katta sinflar darsliklariga kiritilgan. Ushbu hujjatlarni tayyorlash bilan bog‘liq kreativ topshiriqlar ham berilgan. Masalan, 7-sinf BSB ishida quyidagi tartibda rasmiy tarjimayi hol yozish topshirig‘i berilgan.

Topshiriq: O‘quvchilar bob davomida ish qog‘ozlari bilan tanishdilar. O‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashni tekshirish maqsadida hujjat yozish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilarga shaxsiy hayotida ko‘p hollarda yozishga to‘g‘ri keladigan hujjatlardan - tarjimayi hol yozish topshirig‘i beriladi.

Ishni baholash - topshiriq uchun 1 akademik soat (45 daqiqa) vaqt ajratilib, maksimal ball 50 ball bilan baholanadi.

Mavzu: Tarjimai hol yozish

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

1) Ushbu topshiriqni bajarishda foydalanish uchun berilgan badiiy matn o'quvchilarga chiqarib beriladi.

2) Ushbu badiiy matn asosida o'quvchilar o'zlarining ijodiy yondashuvlarida ish qog'ozi namunasiga keltirib tarjimayi hol yozishlari kerak.

3) Tarjimai hol tegishli shaklda, tegishli qonuniyatlari bilan yozilishi kerak.

4) Tarjimayi holni o'quvchi o'z nomidan emas, I betda Xudoyberganov Ozod Abdullayevich nomidan yozishi kerak.

5) Hujjatlarda berilgan matndagi holatlar va qahramonning hayot yo'li o'z aksini topishi kerak.

6) Imlo, uslubiy va punktuatsion me'yorlarga rioya qilingan holda yoziladi.

Hujjatni yozishda foydalanish uchun berilgan matn:

Qudayberganov Azat Abdullayevich

Men Ozodni yoshligimdan taniyman. Birga Qorao'zakning Esimo'zakini changitib o'ynab o'sganmiz. Maktabga birga respublikamiz mustaqillik olgan yili chiqqanmiz. Otasi uni yolg'iz bola bo'lganligi uchun erkalab, avaylab katta qildi. U oiladagi 5 qizdan keyingi o'g'il bola. Otasi Abdulla Bozorboyev oddiy dehqon edi. Onasi - Jumagul Qaypanova uzoq yillar qishlog'imizdagi 40-sonli maktabda qoraqalpoq tilidan dars bergan deb eshitaman, lekin uni ko'rmaganman. Sababi u Ozod uch yoshga chiqqanda vafot etgan.

Ozod qizlar orasida tarbiyalanganligi uchun juda yuvosh, muloyim va ko'ngli bo'sh edi. Hech qachon tortishib, qaysarlik qilib, birovga yomonlik qilganini ko'rgan emasman. Qavmini so'rasam, kichkinaligida hech aytmasdi, keyin bilsam, u o'zbek ekan. Ozod maktabni tugatgandan so'ng grant asosida O'zbekiston Respublikasi Konservatoriyasi Nukus filialiga o'qishga kirdi. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlab, 4 yil davomida tumanimizda yoshlar yetakchisi bo'lib ishladi. Keyin poytaxtga chaqirilib, Berdaq nomidagi davlat teatriga aktyorlikka qabul qilindi. Teatrning 5-yilida kasal bo'lib 2 yil dam olib davolanibdi. Keyin men uni Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasida ko'rdim. Hozirgacha u bir nechta filmlarda bosh va ikkinchi darajali rollarni ijro etdi. O'tgan yili fidokorona xizmatlari uchun Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati ham bo'lib, qishloqqa xursand bo'lib kelib ketgani esimda.

Mana, bugun ikkimiz birgamiz, uning uyida (K.Saypov ko'chasi, 12-uy). Ikki o'g'li dalada xuddi o'tmishdagi bizlar kabi chang ko'tarib o'ynab yotibdi.

U bugun menga teleradiokompaniyaning direktor o'rinbosari bo'lganligini xursandchilik bilan xabar qildi.

(M.Nizanov)

Bundan ko'rinib turibdiki, BSB ishini o'tkazishdan oldin bir necha darslar davomida o'quvchilar badiiy va rasmiy tarjimayi hol yozish tartibini o'rgangan bo'lib, namunaviy matn qo'llariga chiqarib beriladi yoki elektron doskada ochib qo'yiladi. Ular o'rgangan namunasiga ushbu berilgan ma'lumotlarni solib, tegishli tartibda rasmiy hujjat yozib berishlari talab qilinadi. Shu kabi topshiriqni imlo, uslubiy xatolarsiz yozishga o'rgangan o'quvchi tayanch ta'lim bosqichlarining keyingi sinflarida hech qanday matnlarsiz o'z tarjimai holini oson yozib bera oladi.

XULOSA

Dalillarga tayanadigan bo'lsak, hozirgi yangi avlod darsliklari bilan summativ baholash materiallari bir xil yo'nalishda, bir xil tematik rejada tashkil etilgan bo'lib, ularda nafaqat o'quvchining grammatik bilimi, balki erkin fikrlash, ijodiy yondashish, gaplarni tuzib, ma'lum bir uslubdagi ma'lumotli matnni yoza olish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Dáwletov. Qaraqalpaq tili. 9-klass ushın sabaqlıq. 128 bet. «Bilim», Nókis, 2019.
2. M.Dáwletov, E.Dáwenov, D.Seydullaeva. Qaraqalpaq tili, 8-klass ushın sabaqlıq. Nókis, «Bilim», 2019, 128 bet

3. Йулдошев Р.А. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки нутқини уларни кўп гапиртириш орқали ўстириш методикаси (Таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида). – Т.: Фан ва технология, 2012. – 216 б.
4. Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомили (илк ва урта асрлар): Филол. фан...дисс. –Тошкент, 2016. – 101 б.
5. Гальперин Р.И. О понятии текст // Вопросы языкознания, – Москва, 1974. – № 6. – С.22.
6. Юсупова Т.А. Гапнинг бош булакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: пед. фан.номз...дис.автореф. – Т.:2005. – 157 б.
7. Махмудов Н. Нутқ бойлиги // Умумфилологик тадқиқотлар: муаммолар ва ечимлар. Тезис шаклидаги мақола. – Жиззах: 2011. – 162 б.
8. M.Dáwletov., Z.Ismaylova., Z.Qazımbetova. Qaraqalpaq tili. 7-klass ushın sabaqlıq. Tashkent, 2022, 224 bet.